

ADVOKAT STAJYORINING HUQUQIY MAQOMI

Vapayev Karimboy Muzaffar o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakultetining 3-kurs talabasi

E-mail: vapayevkarimboy@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida advokatura tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, advokat stajyorining huquqiy maqomi, stajirovka o'tash hamda stajirovkaga qabul qilish tartibi, stajirovka muddati va stajirovka rahbariga qo'yilgan talablar tahlil qilinadi.

Ushbu maqolaning dolzarbligi advokatura tizimini isloh qilish, advokat maqomini olish tartibining soddalashtirilishi, stajirovka muddatining qisqartirilishi va bu jarayonning huquqiy asoslarini takomillashtirish orqali yuridik kadrlar tayyorlash sifatini oshirish zaruratining mavjudligi hisoblanadi.

Muallif advokat stajyori tushunchasini xorijiy va mahalliy olimlarning ta'riflari asosida izohlaydi, bu maqolada, ayniqsa, A.N. Chashin, R.G. Melnichenko, A.V. Ragulin, M.S. Shayxullin va Y. Soloveva fikrlariga asoslangan holda advokat stajyori instituti nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Maqolada advokatura institutiga oid O'zbekiston qonunchiligi hamda xorijiy davlatlar – Rossiya, Ukraina, Moldova, Litva, Fransiya, Armaniston kabi davlatlarning qonunchiligi tahlil qilinadi. Ularning advokat stajyori rahbariga qo'yilgan talablari, stajirovka muddatlari va tashkil etish mexanizmlari bo'yicha o'rganilgan tahlillar orqali milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy jihatdan asoslangan takliflar ilgari suriladi. Mavzu doirasida xorijiy olimlarning fikrlaridan, ilmiy ishlaridan, xorijiy davlatlarning qonun hujjatlaridan maqsadli foydalanilgan va havolalar berilgan.

Kalit so'zlar: *advokat, advokat stajyori, advokatlik litsenziyasi, advokat stajyorining stajirovka rahbari, advokatning kasb etikasi, benuqson obro'-e'tibor, stajirovkadan ozod qilish.*

LEGAL STATUS OF A LAWYER'S INTERN

Vapayev Karimboy Muzaffar ugli

3rd year student of of the Faculty of Criminal Justice
of Tashkent State University of Law

E-mail: vapayevkarimboy@gmail.com

ANNOTATION

This article analyzes the reforms being implemented in the Republic of Uzbekistan to improve the legal system of the legal profession, the legal status of a trainee lawyer, the procedure for conducting an internship and accepting an internship, the duration of the internship, and the requirements for the internship supervisor.

The relevance of this article is the need to reform the legal profession system, simplify the procedure for obtaining the status of a lawyer, reduce the duration of the internship, and improve the quality of legal personnel training by improving the legal framework for this process.

The author explains the concept of a trainee lawyer based on the definitions of foreign and domestic scientists, in this article, in particular, the institute of a trainee lawyer is theoretically analyzed, based on the ideas of A.N. Chashin, R.G. Melnichenko, A.V. Ragulin, M.S. Shaykhullin and Y. Soloviev.

The article analyzes the legislation of Uzbekistan and foreign countries related to the institute of advocacy - Russia, Ukraine, Moldova, Lithuania, France, Armenia. Through the studied analysis of their requirements for the head of a trainee lawyer, internship terms and organizational mechanisms, scientifically based proposals are put forward for improving national legislation. Within the framework of the topic, the opinions, scientific works of foreign scientists, legislative acts of foreign countries were purposefully used and references were given.

Keywords: *lawyer, trainee lawyer, law license, internship supervisor of a trainee lawyer, professional ethics of a lawyer, impeccable reputation, exemption from internship.*

ПРАВОВОЙ СТАТУС СТАЖЕРА ЮРИСТА

Вапаев Каримбой Музаффар угли

Студент 3 курса факультета уголовного правосудия
Ташкентского государственного юридического университета

E-mail: vapayevkarimboy@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются реформы, реализуемые в Республике Узбекистан по совершенствованию правовой системы адвокатуры, правового

статуса стажера-юриста, порядка проведения стажировки и приема на стажировку, сроков стажировки, требований к руководителю стажировки.

Актуальность данной статьи заключается в необходимости реформирования системы адвокатуры, упрощения процедуры получения статуса адвоката, сокращения сроков стажировки, повышения качества подготовки юридических кадров путем совершенствования правовых основ данного процесса.

Автор поясняет понятие стажера-юриста на основе определений зарубежных и отечественных ученых, в данной статье, в частности, теоретически анализируется институт стажера-юриста, основанный на идеях А.Н. Чашина, Р.Г. Мельниченко, А.В. Рагулина, М.С. Шайхуллина и Ю. Соловьева.

В статье анализируется законодательство Узбекистана и зарубежных стран, связанное с институтом адвокатуры - России, Украины, Молдовы, Литвы, Франции, Армении. Посредством изученного анализа их требований к руководителю стажера-юриста, условиям и организационным механизмам стажировки выдвигаются научно обоснованные предложения по совершенствованию национального законодательства. В рамках темы целенаправленно использовались мнения, научные труды зарубежных ученых, законодательные акты зарубежных стран и приводились ссылки.

Ключевые слова: *адвокат, стажер-юрист, адвокатская лицензия, руководитель стажировки стажера-юриста, профессиональная этика адвоката, безупречная репутация, освобождение от стажировки.*

KIRISH

Respublikamizda demokratik islohatlarni yanada kuchaytirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli kafolatlash, qonun ustuvorligi hamda ijtimoiy adolatni ta'minlash borasida samarali ishlar olib borilmoqda. Ushbu islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri advokatlik faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq. Advokat maqomiga ega bo'lish uchun stajirovka o'tash tartibi soddalashdi va bu talabgorlarga yengillik berishi bilan birga yosh advokatlarning sonini oshishiga imkoniyat yaratdi. Advokat stajyorining samarali stajirovka o'tashi advokat maqomiga ega bo'lishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Advokat maqomiga ega bo'lishga talabgor shaxsning stajirovka o'tash tartibiga o'zgartirishlar kiritilishi advokat bo'lish istagidagi talabgorlar uchun muhim ahamiyat kasb etdi. "Advokatura to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi qonunining 3-1-moddasiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi O'RQ-862 sonli qonuni bilan advokat bo'lish uchun ikki yillik

ish staji talabi bekor qilindi.¹ Ushbu qonunda advokat bo‘lish uchun kamida uch oy stajirovka o‘tash va malaka imtihonini topshirish huquqi nazarda tutiladi. Ilgari advokat bo‘lish uchun yuridik mutaxassislik bo‘yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo‘lish lozim edi va stajirovka muddatining qisqartilishi advokatura sohasining jozibadorligini oshirishga hamda mazkur sohaga yosh kadrlarni va yuridik mutaxassislik bo‘yicha ikki yillik ish stajiga ega bo‘lmagan kadrlarni jalb qilishning samarali tizimini yaratishga xizmat qildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Advokat (lot. *advocatus, advocare* - *yordamga chaqirish*) — yuridik yordam ko‘rsatuvchi shaxs degan ma‘noni anglatadi.²

Advokat stajyori esa kelgusida advokatura sohasida ishlash niyatida bo‘lgan, ma‘lum bir advokatlik tuzilmasida advokatlik faoliyatining barcha yo‘nalishlaridagi sohalarda kasbiy bilimlar va ko‘nikmalarga ega bo‘lish maqsadida stajirovka o‘tayotgan shaxs hisoblanadi.

Huquqshunos olim **A.N.Chashin** advokat stajyori tushunchasiga “sinovdan o‘tayotgan shaxs” deya ta‘rif bergan.³

R.G. Melnichenko o‘zi ishlab chiqqan ta‘rifga asoslanib huquqshunos faoliyatining maqsadli xarakteristikasini belgilaydigan, asosiy maqsadi advokatlik kasbining malakalarini egallash hisoblangan advokatlik ta‘limi xodimi sifatida ta‘riflaydi⁴.

Advokat stajyorining huquqiy maqomi O‘zbekiston Respublikasi “Advokatura to‘g‘risidagi” Qonunning 8.1-moddasida⁵ belgilab o‘tilgan. Kamida uch yillik ish stajiga ega bo‘lgan advokat advokat stajyoriga ega bo‘lishga haqli. Oliy yuridik ma‘lumotga ega bo‘lgan shaxs advokatning stajyori bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga advokat stajyori bo‘la olmaydigan shaxslar ham qonunda belgilab o‘tilgan.

- Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan shaxslar;
- Sudlanganlik holati olib tashlanmagan yoki sudlanganligi tugallanmagan shaxslar advokat stajyori bo‘lishi mumkin emas.

Stajirovka advokatlik tuzilmasida o‘taladi. Advokatning stajyori o‘z faoliyatini advokatning rahbarligida, uning alohida topshiriqlarini bajargan holda amalga oshiradi. Stajyor advokatlik faoliyati bilan mustaqil shug‘ullanishga haqli emas.

¹ O‘RQ-862-сон 09.08.2023. “Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 3-1-moddasiga o‘zgartirish kiritish haqida <https://lex.uz/docs/-6563061>

² <https://uz.wikipedia.org/wiki/Advokat>

³ Чашин А.Н. Стратегия и тактика адвокатской деятельности. М.: Дело и Сервис, 2016. С. 133

⁴ Мельниченко Р. Г. Адвокатура: Учебное пособие для студентов вузов. М.: Интра, 2017. С. 274.

⁵ 349-I-сон 27.12.1996. Advokatura to‘g‘risida <https://lex.uz/uz/docs/-54503>

Milliy qonunchilikda advokat maqomiga ega bo'lishga talabgor stajirovka o'tash istagidagi shaxs bir nechta talablarga javob berishi kerak hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston fuqarosi bo'lish, oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lish talablari mavjud. Advokat stajyorga rahbar sifatida zarur kasbiy fazilatlarga ega bo'lishi lozim va stajirovka davomida stajyorni bo'lajak advokat sifatida har tomonlama shakillanishiga hissa qo'shishi kerak.

Shu bilan birga, ayrim shaxslarga cheklovlar belgilangan va ushbu cheklovlarga o'zgartirish kiritish lozim deb hisoblaymiz. Qonunchiligimizda qasddan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir qilgan shaxslar sudlanganlik holati olib tashlanganligidan yoki sudlanganligi tugallanganligidan qat'iy nazar ushbu shaxslar advokat stajyori bo'lishi mumkin emas degan normani mustahkamlashimiz lozim. Chunki qasddan odam o'ldirish jinoyatini sodir qilgan yoki jinsiy zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarni sodir qilgan shaxslar jazoni o'tab chiqqach, sudlanganligi olib tashlanganidan keyin advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish maqsadida malaka imtihonini topshirish uchun talabgor sifatida murojaat qilgan holatlari mavjud. Ushbu shaxslarning kelgusida advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishi ularning advokat sifatida malakali yuridik yordam ko'rsatishini shubxa ostida qoldiradi.

Advokat maqomiga ega bo'lishga talabgor shaxsning stajirovka o'tash talabi bo'yicha **A.V.Ragulin** va **M.S.Shayxullin**larning fikricha, bo'lajak advokatning kasbiy tayyorgarligi aynan stajirovka shaklida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu olimlarning fikrlarini qo'llab quvvatlayman va qo'shimcha sifatida advokatlik tuzilmasida stajyor tomonidan o'taladigan stajirovka jarayonini jiddiy nazorat qilish mexanizmlarini ishlab chiqish lozimligini ta'kidlayman. Chunki amaliyotda ayrim stajyorlar tomonidan tanish-bilishlarini advokatlik tuzilmalarida stajirovkani nomigagina o'tashi holati va stajirovkaga bormasdan yakunida ijobiy tavsifnomalar olganlik holatlari uchrab turadi.

Y.Soloveva ushbu olimlarning fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda: "advokatlik kasbi asoslarini o'rgatishga qaratilgan stajirovka advokaturaga tayyorgarlikning majburiy bosqichi bo'lishi kerak", – deb ta'kidlaydi. Ushbu olimlarni fikrlarini qo'llab quvvatlaymiz, chunki stajyor degani bu bo'lajak advokat degani va stajirovkaning asosiy vazifasi talabgorni advokat maqomiga ega bo'lish uchun tayyorlash, uning nazariy bilimlarini oshirish hamda kasbga oid bilim va ko'nikmalarini hosil qilishdir.

Advokat stajyorining mehnat sharoitlari qonunchilikda belgilangan tartibda tuzilgan mehnat shartnomasi bilan belgilanadi. Advokat stajyorining faoliyatini tashkil qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan Advokatlar palatasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Yuqorida tahlil qilingan normalar Advokatura to'g'risidagi qonundan tashqari "Advokat stajyori va yordamchisining faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi" nizomda belgilangan. Shuningdek ushbu nizomning bir qancha ahamiyatli jihatlarni ham tahlil qilishimiz lozim. Jumladan, advokat stajyori va yordamchisiga nisbatan Advokatning kasb etikasi qoidalari va advokatlik sirini saqlashga doir talablar tadbiq etiladi. Stajyor va yordamchining mehnatiga haq to'lash va ijtimoiy sug'urtasi advokatlik tuzilmasiga kelib tushgan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi. Stajyor va yordamchi advokatlik byurosi, advokatlik firmasi va advokatlar hay'atida faoliyat yuritgan taqdirda unga advokatlik tuzilmasi tomonidan, yuridik maslahatxonada faoliyat yuritgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan guvohnoma beriladi. Bunda, stajyor yoki yordamchi bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda guvohnoma advokatlik tuzilmasiga (hududiy boshqarmaga) qaytarilishi kerak. Advokatlik tuzilmasi (hududiy boshqarma) rahbari tomonidan stajyor yoki yordamchi bilan mehnat shartnomasi tuzilganligi va bekor qilinganligi bo'yicha buyruqlarning nusxalarini ular rasmiylashtirilgan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida "Yuridik yordam" axborot tizimiga kiritilishi lozimligi belgilangan.⁶

Advokatura to'g'risidagi qonunning 3-1-moddasida Advokat maqomiga ega bo'lishga talabgor shaxs litsenziya olish uchun advokatlik tuzilmasida (advokatlik byurosida, advokatlik firmasida, advokatlar hay'atida, yuridik maslahatxonada) kamida uch oy muddat stajirovka o'tashi kerak hamda malaka imtihonini topshirishi shartligi belgilangan.

Advokatura to'g'risidagi eski tahrirdagi qonunda stajirovka muddati ikki yil qilib belgilangan edi. Qonunchiligimizni takomillashuvi bilan stajirovka muddati uch oy qilib belgilandi. Bir guruh olimlar, xususan, **N.Mamedova** va **V.Golubevlar** o'z ilmiy ishlarida advokatlik tuzilmalarida olti oy davomida stajirovka o'tagan bo'lishi lozim, shu bilan birga, yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lish yoki advokatlik tuzilmalarida bir yildan ikki yilgacha stajirovka o'tashi kerak degan fikrlarni ilgari surganlar.

Endi bevosita stajirovkani tashkil qilish tartibiga to'xtaladigan bo'lsak, Advokat maqomiga ega bo'lishga talabgor shaxs stajirovkani qaysi advokatlik tuzilmasida o'tash niyyatida bo'lsa, o'sha advokatlik tuzilmasiga ariza bilan murojaat qiladi. Talabgor stajirovkani yuridik maslahatxonada o'tash uchun tegishli hududiy boshqarmaga ariza bilan murojaat qiladi.

⁶ 3517-coh 04.06.2024. Advokat stajyori va yordamchisining faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida <https://lex.uz/uz/docs/-6951674>

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportining (identifikatsiyalovchi ID- kartasi) nusxasi;
- oliy yuridik ma’lumot to‘g‘risidagi diplom nusxasi;
- sudlanmaganlik (yoki sudlanganlik) to‘g‘risida ma’lumotnoma;
- oxirgi ish joyi bo‘yicha tasdiqlangan qog‘oz shaklidagi mehnat daftarchasini yoki elektron mehnat daftarchasidan ko‘chirmani, bundan birinchi marta ishga kirayotgan shaxslar mustasno. O‘rindoshlik asosida ishga kirayotgan shaxslar mehnat daftarchasining o‘rniga asosiy ish joyidan olingan belgilangan namunadagi ma’lumotnomani taqdim etadi.

Talabgorning arizasi kelib tushgan kundan e’tiboran, besh ish kuni ichida advokatlik tuzilmasi tomonidan hujjatlar o‘rganib chiqiladi va suhbat natijasiga ko‘ra, quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi hamda stajyorlikka qabul qilish va stajirovka rahbarini tayinlashga oid ma’lumotlar advokatlik tuzilmasining (hududiy boshqarmaning) rahbari tomonidan chiqariladigan buyruqda aks ettiriladi:

1. talabgorni stajyorlikka qabul qilish haqida qaror;
2. talabgorni stajyorlikka qabul qilishni rad etish haqida qaror.

Stajyorni ishga qabul qilish advokatlik tuzilmasi (hududiy boshqarma) rahbarining buyrug‘i bilan amalga oshiriladi. Buyruq chiqarish uchun stajyor bilan tuzilgan mehnat shartnomasi asos bo‘ladi, ushbu buyruq bilan stajyorga stajirovka rahbari tayinlanadi.

Advokat maqomiga ega bo‘lishga tayyorlanish va uning kasbiy bilimlarini hamda ko‘nikmalarini hosil qilish stajirovkaning asosiy vazifasi hisoblanadi va bu borada stajirovka rahbarining ham o‘rni katta. Shuning uchun stajirovka rahbari uchun 3 yillik stajga ega bo‘lish talabi qo‘yilishi ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Endi xorijiy davlatlarda stajirovka rahbariga qo‘yiladigan talablarni ham tahlil qilib o‘tamiz.

Xorijiy davlatlarning bu boradagi tajribasini o‘rganadigan bo‘lsak, **Ukrainada** alohida stajirovka rahbarlari reyestri mavjud bo‘lib, ushbu ro‘yxatga kirish uchun advokat hududiy advokatlar kengashiga murojaat qilishdan oldin uch yil davomida intizomiy jazoga (ogohlantirish bundan mustasno) tortilmagan bo‘lishi lozim.⁷

Litva qonunchiligida esa belgilangan muddat davomida Litvaning amaliyotchi advokatlari ro‘yxatidagi advokat stajirovka rahbari bo‘lishi mumkin, shuningdek, stajirovka rahbari bo‘lish uchun amalda intizomiy javobgarlikka tortilgan jazoga ega bo‘lmasligi kerak.⁸

⁷ https://zib.com.ua/ua/print/23859-kak_budut_prohodit_stazhirovku_buduschie_advokati.html

⁸ <https://e-seimas.lrs.lt/portal/legalAct/lt/TAD/b4a99200249f11e58a4198cd62929b7a?jfwid=nq76mm5vj>

Bu masala bo'yicha **Moldova** qonunchiligida stajirovka rahbarida advokat stajyori uchun yetarli joy bo'lishi, qonunchilikda belgilangan muddat davomida advokatlik faoliyati bilan shug'ullangan va benuqson obro'-e'tiborga ega bo'lishi shartligi belgilangan.⁹

Endi advokat stajirovka rahbari bo'lish uchun necha yil ish stajiga ega bo'lishi lozimligi bilan bog'liq xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilib o'tadigan bo'lsak, Xorijiy davlatlar, masalan, **Rossiya Federatsiyasi**¹⁰, **Ukraina**¹¹, **Belarus**¹², **Moldova**¹³, **Qozog'iston**¹⁴, **Turkmaniston**¹⁵, **Armaniston**¹⁶, **Litva**¹⁷ tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, stajirovka rahbari bo'lish uchun advokat sifatida kamida besh yillik ish stajiga ega bo'lgan shaxs bo'lishi mumkin.

Stajirovka rahbariga qo'yilgan yil senzi O'zbekiston va xorijiy davlatlar bilan solishtirma jadval.

No	Davlatlar	Muddatlari
1.	O'zbekiston	3 yil
2.	Rossiya Federatsiyasi	5 yil
3.	Ukraina	5 yil
4.	Turkmaniston	5 yil
5.	Qozog'iston	5 yil
6.	Belarus	5 yil
7.	Armaniston	5 yil
8.	Moldova	5 yil
9.	Litva	5 yil
10.	Gruziya	Belgilanmagan
11.	Tojikiston	Belgilanmagan

⁹ https://www.legis.md/cautare/getResults?doc_id=126609&lang=ru

¹⁰ <https://docs.cntd.ru/document/901819236>

¹¹ https://kodeksy.com.ua/ka/ob_advokature_i_advokatskoj_deyatel_nosti/download.htm

¹² https://kodeksy-by.com/zakon_rb_ob_advokature.htm

¹³ https://www.legis.md/cautare/getResults?doc_id=126609&lang=ru

¹⁴ <https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z1800000176>

¹⁵ <https://www.ilo.org/dyn/natlex/docs/ELECTRONIC/86642/98169/F1895252782/TKM86642.pdf>

¹⁶ <https://www.arlis.am/documentview.aspx?docid=78982>

¹⁷ <https://e-seimas.lrs.lt/portal/legalAct/lt/TAD/b4a99200249f11e58a4198cd62929b7a?jfwid=nq76mm5vj>

Stajirovka kamida uch oy davom etadi. Stajirovkaning eng ko‘p muddati ikki yildir. Uzoq muddat (vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug‘ish ta‘tillari, bola parvarishlash ta‘tillari, ishdan ajralgan holda malaka oshirish, stajirovka rahbarining litsenziyasining amal qilishi to‘xtatib turilishi yoki tugatilishi kabi holatlarda) ishda bo‘lmagan vaqt stajirovka muddatiga qo‘shilmaydi.

Stajirovkaning davom qilish muddatlari O‘zbekiston va xorijiy davlatlar bilan solishtirma jadval.

No	Davlatlar	Muddatlari
1.	O‘zbekiston	3 oydan - 2 yilgacha
2.	Rossiya Federatsiyasi	6 oydan - 1 yilgacha
3.	Tojikiston	6 oydan - 1 yilgacha
4.	Turkmaniston	6 oydan - 1 yilgacha
5.	Qozog‘iston	6 oydan - 1 yilgacha
6.	Belarus	3 oydan - 6 oygacha
7.	Armaniston	1 yildan 2 yilgacha
8.	Moldova	24 oy (12 oydan keyin malaka imtihonini topshirish
		mumkin)
9.	Fransiya	2 yil
10.	Litva	2 yil
11.	Germaniya	2 yil
12.	Ispaniya	2 yil

Advokatura sohasini tadqiq qilgan huquqshunos ustozlarimizdan **Alibek Matmurodov** qonunchilikda stajirovkaning aniq muddati belgilanishi advokat maqomiga ega bo‘lishga talabgor shaxs uchun zarur kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarning yetarlicha shakllanishiga olib kelishini ijobiy jihat sifatida baholaganlar. Biroq talabgor yetarlicha nazariy va kasbiy bilim hamda ko‘nikmalarga ega bo‘lgan taqdirda ham stajirovkaning belgilangan muddati tugashini kutishga, natijada ushbu shaxsning advokat maqomini olishi ma‘lum bir muddat ortga

surilishiga olib kelishini salbiy jihat sifatida ko'rsatish mumkinligini ta'kidlab o'tganlar¹⁸.

Shuningdek, "Advokat stajyori va yordamchisining faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi" nizomda stajirovka rahbarining advokatlik maqomi, advokatlik faoliyati uchun litsenziyasining amal qilishi to'xtatib turilishi yoki tugatilishi sababli stajirovkaning ma'lum muddati o'talmay qolgan taqdirda, stajyorning tanloviga ko'ra stajirovka ana shu davrga uzaytirilishi yoki stajyor boshqa advokatlik tuzilmasida yoki boshqa advokat rahbarligida stajirovkani davom ettirishi mumkinligi belgilab o'tilgan.

Stajirovka o'tashi ustidan nazoratni stajirovka rahbari amalga oshirib, stajirovka rahbari quyidagi huquqlarga ega:

- stajyor tomonidan aniq ishlar bo'yicha qonunchilik, jumladan advokaturaga oid qonunchilik hujjatlari va sud amaliyoti o'rganilishi;
- stajyorning kasbiy tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlarda ishtirok etishi;
- stajyorning stajirovka o'tashi to'g'risida o'z vaqtida va to'liq hisobot berishi ustidan nazorat qiladi.

Stajirovka davrida stajyor advokatlik faoliyatining barcha yo'nalishlaridagi sohalarda kasbiy bilimlar va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Bunda, stajirovka rahbari stajyorni Advokatning kasb etikasi qoidalari bilan tanishtirishi, stajyorga zarur maslahatlar va tushuntirishlar berishi, o'rganish uchun zarur bo'lgan qonunchilik hujjatlari va sud amaliyotini tavsiya qilishi shart.

Shuningdek, Nizomda advokat stajyorining huquq va majburiyatlari ham belgilab o'tilgan. Stajyor stajirovkani o'tash davrida quyidagi huquqlarga ega:

- ✓ advokatlar palatasi va advokatlik tuzilmasi tomonidan tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlarda va seminar-treninglarda ishtirok etish;
- ✓ advokatlik tuzilmasida mavjud bo'lgan huquqiy ma'lumotlar bazalaridan, maxsus adabiyotlardan foydalanish;
- ✓ stajirovka rahbari tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarish uchun zarur bo'lgan hujjat va boshqa materiallarni to'plash;
- ✓ huquqiy hujjatlarning loyihalarini tayyorlash;
- ✓ stajirovka rahbari bilan birgalikda tegishli sud yoki tergovchining ruxsati bilan sud majlislarida, tergov harakatlarida qatnashish.

Stajyor stajirovkani o'tash davrida quyidagi majburiyatlarni bajaradi:

- stajirovka rahbarining topshiriqlarini vijdonan, o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarish;

¹⁸ (PDF) Advokat maqomiga ega bo'lishga talabgor shaxsning stajirovka o'tash tartibini takomillashtirish masalalari https://www.researchgate.net/publication/368678377_Advokat_maqomiga_ega_bo'lishga_talabgor_shaxsning_stajirovka_o'tash_tartibini_takomillashtirish_masalalari

- advokatlik sirini saqlash;
- advokatura to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari va Advokatning kasb etikasi qoidalariga rioya qilish;
- advokatlik tuzilmasining mehnat intizomiga rioya etish.

Stajyor stajirovkaning barcha yakka tartibdagi rejalarini bajarib bo'lganidan keyin yozma hisobot tayyorlaydi, unda o'zi tomonidan stajirovkaning yakka tartibdagi rejalarini bajarilishining yakunlari aks ettirilishi kerak. Hisobot stajirovka rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Stajirovka muddati tugaganidan keyin stajirovka rahbari stajyorga mufassal tavsifnoma tuzadi, unda uning tayyorgarlik darajasi, stajirovka davomida u tomonidan kasbga doir olingan amaliy va nazariy bilimlari hamda ko'nikmalari, topshiriqlarni bajarishida va kollektivning jamoat hayotida ishtirokining faolligi, shuningdek, stajyorni malaka imtihonini topshirishga kirishi to'g'risidagi tavsiyasi aks ettirilgan bo'lishi kerak. Stajyorga tavsifnoma advokatlik tuzilmasi rahbarining imzosi va tuzilmaning muhri bilan tasdiqlanadi.

Xorijiy davlatlarda advokat maqomini olish uchun talabgorlarga qo'yiladigan talablarni ham tahlil qiladigan bo'lsak, **Fransiya** qonunchiligiga ko'ra, advokatlik kasbga kirish uchun juda qat'iy talablar qo'yilgan. Advokat maqomini olish uchun talabgorlarning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalari tayyorgarligi, huquq magistr darajasiga ega bo'lishidan tashqari, advokatlarni professional tayyorlash hududiy markazlarida 18 oy davomida o'qish va bitiruv imtihonlarini topshirishi kerak bo'ladi.¹⁹

Advokat maqomiga ega bo'lishga talabgor maxsus professional tayyorlash markaziga kirish imtihonini ham topshirishi kerak. O'qish davri uch bosqichdan iborat bo'lib, asosiy fanlarni o'rganish, nomzod bilan individual ishlash va advokat bilan amaliyot o'tashdan tashkil topgan.

Armaniston Respublikasida advokat maqomini olish tartibi nazariy va amaliy mashg'ulotlarni qamrab olgan advokatlik maktabida majburiy o'qitishni nazarda tutadi. Talabgor o'qishni tamomlaganidan keyin advokatlik faoliyatini amalga oshirishga asos bo'luvchi litsenziya olish uchun yagona imtihonni topshiradi.²⁰

Shuningdek "Advokatura to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3-1-moddasida stajirovkadan ozod qilingan shaxslar toifasi keltirib o'tilgan. Ushbu organlar sifatida - davlat organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi sifatida, sudya, tergovchi, surishtiruvchi yoki prokuror lavozimida kamida uch yil yuridik mutaxassislik bo'yicha ish stajiga

¹⁹ Абрамов В.Ю. Порядок приобретения статуса адвоката и его правовой статус // Научно-образовательный журнал для студентов и преподавателей «StudNet» №5/2020. –С. 477-478.

²⁰ <https://paruz.uz/posts/stazheru-i-pomoschniku>

ega bo‘lgan shaxs advokatlik tuzilmasida stajirovkadan o‘tmasdan malaka imtihonida ishtirok etishga haqli ekanligi belgilangan. Lekin ushbu holatda amaliyotda uchraydigan bir qancha misollar bilan tahlil qiladigan bo‘lsak, masalan bitta shaxs bir yil tergovchi sifatida, bir yil prokuror sifatida, yana bir yil sudya sifatida ishlagan bo‘lsa ushbu shaxsni stajirovkadan ozod qilish yoki qilmaslik masalasi muhokama ostida qoladi. Chunki qonunda uch yil yuridik mutaxassislik bo‘yicha ish stajiga ega bo‘lish talabi belgilangan. Qonunchilikdagi noaniqlikni oldini olish uchun “Advokatura tog‘risidagi” qonunda uch yillik ish staji ayni bir xil sohada o‘talishi masalasini aniqlashtirib ketish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Advokat maqomiga ega bo‘lish uchun stajirofka tashkil etish tartibi soddalashti va bu talabgorlarga yengillik berishi bilan birga yosh advokatlarning sonini oshirishga imkoniyat yaratdi. Ilgari advokat bo‘lish uchun yuridik mutaxassislik bo‘yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo‘lish lozim edi va stajirovka muddatining qisqartilishi advokatura sohasining jozibadorligini oshirishga hamda mazkur sohaga yosh kadrlarni va yuridik mutaxassislik bo‘yicha ikki yillik ish stajiga ega bo‘lmagan kadrlarni jalb qilishning samarali tizimini yaratishga xizmat qildi. Xorijiy davlatlarning ijobiy amaliyotini tahlil qilgan holda advokat stajyorining faoliyatini tashkil qilish, stajirovka o‘tash muddatlari va stajyorga rahbar sifatida tayinlangan advokatlar uchun qo‘yiladigan talablar va ularni takomillashtirish bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqilib, milliy qonunchiligimizni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, xorijiy davlatlarda mavjud ijobiy amaliyotdan kelib chiqib, advokatura sohasida stajyorlar uchun tayinlangan stajirovka rahbariga bir qancha talablarni belgilash lozim:

- benuqson obro‘-e‘tiborga ega bo‘lishi kerak;
- advokatning stajirovka rahbari sifatida tayinlanayotgan vaqtida unga nisbatan qo‘llanilgan intizomiy jazo chorasi bo‘lmasligi lozim;
- advokat sifatida ma‘lum bir muddat ishlagan bo‘lishi zarur;
- advokat stajirovka rahbarlari reyestriga kiritilgan bo‘lishi kerak;

Ikkinchidan, advokatlik tuzilmasida stajyor tomonidan o‘taladigan stajirovka jarayonini jiddiy nazorat qilish mexanizmlarini ishlab chiqish lozim, misol uchun stajyor tomonidan o‘taladigan uch oylik stajirovkaning ikki oyini tegishli advokatlik tuzilmalarida va bir oyini advokatlar palatasi yoki uning hududiy boshqarmalarida o‘tash tartibini ishlab chiqish lozim.

Uchinchidan, “Advokatura to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi qonunining 3-moddasi 2-bandiga va “Advokat stajyori va yordamchisining faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi” nizomning 3-bandida quyidagi normani mustahkamlab qo‘yish lozim.

“qasddan og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir qilgan shaxslar sudlanganlik holati olib tashlanganligi yoki sudlanganlik holati tugallanganligidan qat’iy nazar advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanishiga yo‘l qo‘yilmaydi”

To‘rtinchidan, “Advokatura to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi qonunining 3-1-moddasida stajirovkadan ozod qilingan shaxslarning uch yil ish stajiga ega bo‘lish masalasini ayni bir sohada umumiy uch yil ish stajiga ega bo‘lgan shaxslar sifatida belgilab, quyidagicha tahrirda o‘zgartirish lozim.

“davlat organlari, xo‘jalik boshqaruvi organlari, davlat muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi sifatida, sudya, tergovchi, surishtiruvchi yoki prokuror lavozimlaridan birida kamida uch yil yuridik mutaxassislik bo‘yicha ish stajiga ega bo‘lgan shaxs advokatlik tuzilmasida stajirovkadan o‘tmasdan malaka imtihonida ishtirok etishga haqli”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. 2023-yil 9-avgustda qabul qilingan “Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 3-1-moddasiga o‘zgartirish kiritish haqida O‘RQ-862- <https://lex.uz/docs/-6563061>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Advokat>
3. Чашин А.Н. Стратегия и тактика адвокатской деятельности. М.: Дело и Сервис, 2016. С. 133.
4. Мельниченко Р. Г. Адвокатура: Учебное пособие для студентов вузов. М.: Интра, 2017. С. 274.
5. O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan Advokatura to‘g‘risidagi 349-I-son qonuni <https://lex.uz/uz/docs/-54503>
6. 2024-yil 4-iyunda qabul qilingan 3517-sonli “Advokat stajyori va yordamchisining faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” <https://lex.uz/uz/docs/-6951674>
7. https://zib.com.ua/ua/print/23859kak_budut_prohodit_stazhirovku_buduschie_a_dvokati.html
8. <https://eseimas.lrs.lt/portal/legalAct/lt/TAD/b4a99200249f11e58a4198cd62929b7a?jfwid=nq76mm5vj>
9. https://www.legis.md/cautare/getResults?doc_id=126609&lang=ru
10. <https://docs.cntd.ru/document/901819236>

11. https://kodeksy.com.ua/ka/ob_advokature_i_advokatskoj_deyatel_nosti/download.htm
12. https://kodeksy-by.com/zakon_rb_ob_advokature.html
13. https://www.legis.md/cautare/getResults?doc_id=126609&lang=ru
14. <https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z1800000176>
15. <https://www.ilo.org/dyn/natlex/docs/ELECTRONIC/86642/98169/F1895252782/TKM86642.pdf>
16. <https://www.arlis.am/documentview.aspx?docid=78982>
17. <https://eseimas.lrs.lt/portal/legalAct/lt/TAD/b4a99200249f11e58a4198cd62929b7a?jfwid=nq76mm5vj>
18. Advokat maqomiga ega bo‘lishga talabgor shaxsning stajirovka o‘tash tartibini takomillashtirish masalalari
https://www.researchgate.net/publication/368678377_Advokat_maqomiga_ega_bo'lishga_talabgor_shaxsning_stajirovka_o'tash_tartibini_takomillashtirish_masalalari
19. Абрамов В.Ю. Порядок приобретения статуса адвоката и его правовой статус // Научно-образовательный журнал для студентов и преподавателей “Student” №5/2020. –С. 477-478.
20. <https://paruz.uz/posts/stazheru-i-pomoschniku>